

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETI**

RAXIMOV SHAROF AMONOVICH

**PARAMAGNIT GRANAT VA ORTOALYUMINAT KRISTALLARDA
NOKRAMERS NODIR YER IONLARINING MAGNITOPTIK VA
OPTIK SPEKTROSKOPIYASI**

01.04.09 – Magnit hodisalari fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) физико-
математических наук**

**Content of the dissertation abstract of the doctor (DSc)
on physical and mathematical sciences**

Raximov Sharof Amonovich

Paramagnit granat va ortoalyuminat kristallarda nokramers nodir yer ionlarining magnitoptik va optik spektroskopiyasi..... 3

Рахимов Шароф Амонович

Магнитооптическая и оптическая спектроскопия редкоземельных некрамерсовских ионов в кристаллах парамагнитных гранатов и ортоалюминатов 29

Rakhimov Sharof Amonovich

Magneto-optical and optical spectroscopy of rare-earth non-cramers ions in crystals of paramagnetic garnets and orthoaluminates 55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Spisok opublikovannyykh rabot

List of published works 59

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETI**

RAXIMOV SHAROF AMONOVICH

**PARAMAGNIT GRANAT VA ORTOALYUMINAT KRISTALLARDA
NOKRAMERS NODIR YER IONLARINING MAGNITOPTIK VA
OPTIK SPEKTROSKOPIYASI**

01.04.09 – Magnit hodisalari fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2024.1.DSc/FM174 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Valiyev Uygun Vaxidovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muqimov Kamil Muqimovich
O'zRFA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Sharipov Mirzo Zokirovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Eshchanov Baxodir Xudayberganovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «18» 05 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15 uy. Tel.: (99866) 239-13-87, 239-11-40; faks: (99866) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Samarqand davlat universiteti Muhandislik fizikasi instituti, 1-qavat, 114--xona).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (28 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15 uy. Tel.: (99866) 239-13-87, 239-11-40; faks: (99866) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «02» 05 kuni tarqatildi.
(2024 yil «01» 05 dagi TSUIM raqamli reestr bayonnomasi).



M.X. Ashurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., akademik

R.M. Rajabov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.n., dotsent

O. Kuvandikov
Ilmiy kengash xuzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasiga avtoreferat)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Fizikaning ikki fundamental sohalari - fizikaviy optika va magnit hodisalar fizikasi chegarasida yuzaga kelgan nodir yer (NY) birikmalarining zamonaviy magnitoptik spektroskopiyasi turli nodir yer materiallarining (kristallar, shishalar va h.k.) H tashqi magnit maydon ta'sirida namoyon bo'ladigan optik xususiyatlari anizotropiyasi bo'yicha olib borilayotgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar keng spektrini o'z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda dunyoda kristallarda nokramers NY-ionlarining (to'ldirilmagan qobiqda juft elektronlar soniga ega bo'lgan) elektron holatlari simmetriyasi va energetik spektrlarini batafsil o'rganishda magnitoptik metodlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu holat, NY-birikmalar optik spektroskopiyasining ("hot-band" spektroskopiyasi, optik uyg'otishli polarizatsion spektroskopiya - OUPS) zamonaviy usullarini qo'llash jarayonida (ya'ni, nokramers ionlari) to'ldirilmagan qobiqdagi juft $4f$ -elektronlar soniga ega bo'lgan NY-ionlari optik spektrlarini tahlil qilishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelinishi bilan bog'liq, chunki tajribalarda kuzatiladigan ularning spektrlaridagi tashkil etuvchilar soni va intensivlik taqsimotlari nazariy hisoblashlar bilan mos kelmaydi. Tajriba va nazariyaning mos kelmasligiga sabab, optik tajribalarda energetik spektrlardagi bevosita ajratib olib tahlil qilish mumkin bo'lmagan «kvazidublet» deb ataluvchi strukturalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Granatlardagi nokramers ionlari (Tb^{3+} , Ho^{3+} , Eu^{3+} , Tm^{3+} va boshqalar) optik spektrlarining tahlilidagi qiyinchiliklar ma'lum ma'noda bartaraf qilinishi mumkin, agarda ta'qiqlangan (elektrodipol yaqinlashishida) $4f \rightarrow 4f$ o'tishlardagi magnit doiraviy dixroizm (MDD), lyuminessensiyaning magnit sirkulyar qutblanishi (LMSQ) va boshqa magnitoptik effektlar chiziqli differensial magnitoptik spektroskopiya usullari yordamida o'rganiladigan bo'lsa.

Birinchi MDD va LMSQ lar paydo bo'lishining asosiy manbai optik o'tishlarda NY-ionlari energetik spektrlarida «kvazidublet» holatlarini aniqlash imkonini beruvchi, kombinatsiyalanuvchi nokramers ionlarining asosiy va uyg'otilgan multipletlari shtark sathostilarining aynimagan (ya'ni, kvaziaynigan) bir-biriga yaqin joylashgan to'lqin funksiyalarining H tashqi magnit maydoni bilan kvantomexanik "aralashishi" hisoblanadi. Ikkinchidan, optik o'tishlarning matrik elementlari uchun simmetriya (simmetriyali D_2 guruh) bo'yicha tanlash qoidasining qo'llanilishi optik o'tishlarda (ularda yoki ulardan) sodir bo'ladigan shtark sathostilari (kvazidubletlarni ham hisoblaganda) to'lqin funksiyalari simmetriyalarini aniqlashning noyob imkoniyatlarini ochib beradi. Shu sababli optik, magnit va magnitoptik tadqiqot usullaridan kompleks foydalanish ortoalyuminat va granat kristallaridagi nokramers NY-ionlari elektron holatlarining uyg'otilishi to'g'risida boshqa fizik tadqiqot usullari bera olmaydigan eksperimental axborotlarni olish imkonini beradi.

Respublikamizda fundamental fanlarni yanada rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy

etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlarida ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar va yuqori texnologiyali markazlar yaratish yo'lida asosiy maqsad va vazifalar belgilab olingan. Ushbu maqsadlarni samarali amalga oshirish uchun davlatimiz tomonidan tadqiqotlarning ilmiy-eksperimental metodlariga katta e'tibor qaratilmoqda. NY-birikmalarning optik, magnit va magnitooptik xususiyatlarini tadqiq qilish metodlari shular jumlasidandir. Shuningdek olingan ilmiy yangiliklarni zamonaviy texnika va texnologiyalarga tadqiq qilish muhim hisoblanadi. Ushbu turdagi tadqiqotlar nafaqat mamlakatimiz olimlari, balki dunyo mamlakatlarining turli ilmiy markazlari tadqiqotchilarini ham qiziqtirib kelmoqda.

Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi¹, 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-sonli "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 13-yanvardagi PQ-82-son "Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda ushbu faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston respublikasi fan va texnikani rivojlantirishning: II "Energiya, energiya va resurslarni tejash, transport, mashina va asbobsozlik; zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asboblarni ishlab chiqish" va PFI-2 «Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq amalga oshirildi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi²: XXI asrning dastlabki ikki o'n yilligida: Department of Physics, San Jose State University, San Jose (USA), The of School of Physics and Technology, Wuhan University, Wuhan (China), The Katholieke Universiteit, Leuven (Belgium), Moskva davlat universitetida (MGU), A.V. Shubnikova nomidagi kristallografiya institutida (RAN), A.N.Proxorov nomidagi umumiy fizika institutida (Rossiya), L.V.Kirenskiy nomidagi fizika (Krasnoyarsk) institutida , Xarkov past haroratlar instituti (FTINT, Ukraina) kabi dunyoda tan olingan yetakchi ilmiy tekshirish markazlarida va O'zbekiston Milliy universitetida (O'zMU) NE-magnetiklarning optik, magnit va magnitooptik xossalari tadqiq qilish borasida nazariy va eksperimental tekshirish ishlari jadal ravishda olib borilmoqda.

Dissertatsiya ishida ilmiy yo'nalish bo'yicha jahon miqyosida qator dolzarb muammolar hal qilingan va NY-birikmalarining magnitooptika va optika sohasidagi muhim ilmiy natijalar olingan, xususan kristall maydonlar (KM)

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2020 yil, 30 dekabr, №275-276(7746-7747), 1-bet

² Диссертация мавзуси бўйича халқаро илмий текшириш ишларининг таҳлили қуйидагилар бўйича олиб борилди: <https://journals.aps.org>, <https://ufn.ru>, <https://www.elsevier.com> <https://apps.webofknowledge.com>, iopscience.iop.org, journals.ioffe.ru, WebofScience, Scopus, Springer. Research.

nazariyasi metodlaridan foydalanib D_2 va C_5 quyi simmetriyalı kristall maydonlarda uch valentli Tb^{3+} , Ho^{3+} , Tm^{3+} , Eu^{3+} va boshqa NY-ionlarining to‘lqin funksiyalari va energetik spektrlari hisoblangan, (San Jose State University, Katholieke Universiteit) hamda past haroratlarda NY-granatlari tarkibida Tb^{3+} , Ho^{3+} , Eu^{3+} va Tm^{3+} kabi NY-ionlari qo‘shilgan ortoalyuminatlarning yutilish spektrlari va lyuminessensiyalari yetarlicha keng harorat hamda to‘lqin uzunligi diapazonlarida tadqiq qilingan (O‘zMU, MGU, FTINT va boshqalarda), shuningdek 4,2 K gacha bo‘lgan o‘ta past haroratlarda turlicha granatlar kristallaridagi kramers (Dy^{3+} , Er^{3+}) va nokramers (Tb^{3+} , Ho^{3+} , Eu^{3+}) nodir yer ionlari spektrlarining Zeeman ajralishlari tadqiq qilingan (O‘zMU FTINT, RAN fizika instituti bilan hamkorlikda) va NY-paramagnit shishalarda (RAN fizika instituti), NY-granatlari va ortoalyuminatlar kristallarida (O‘zMU, FTINT) temperatura va to‘lqin uzunliklarining keng intervalida magnit doiraviy dixroizm (MDD) va Faradey effektlari (FE) ni o‘lchash ishlari amalga oshirilgan.

Birinchi marotaba NY-ionlari Tb^{3+} , Ho^{3+} , Eu^{3+} , Dy^{3+} va Er^{3+} bilan faollashtirilgan itriy-aluminiyli granatning ko‘rish diapazonida keng temperatura intervalida magnit doiraviy qutblaninish lyuminessensiyasi (MDQL) batafsil tadqiq qilindi (O‘zMU, Wuhan University).

Hozirgi vaqtda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida istiqbolli yo‘nalishlarda, xususan spin-elektronika, magnitoelektronika va zamonaviy materialshunoslikda fotonika uchun optik zatvor, deflektorlar, magnitoptik modulyatorlar yaratishda qo‘llaniladigan NY-paramagnit birikmalar magnitoptik xossalarini ilmiy tekshirish bo‘yicha ilmiy izlanish ishlari jadal suratda olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda magnitlanishlari ularning optik xususiyatlarini rekord darajasida o‘zgarishlari (50÷100% gacha) ga olib keladigan NY-birikmali kristallar bo‘yicha eksperimental izlanish va nazariy tadqiqotlar jarayoni, istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Tashqi magnit maydoni ta’sirida kristallardagi NY-ionlari panjaraosti natijaviy magnit momentlarining (yoki o‘tish ionlari uchun spin tizimi) burilishi orqali, yutilish yoki lyuminessensiya spektrlaridagi chiziqlarda chiziqli yoki doiraviy qutblangan tashkil etuvchilarning paydo bo‘lishi, yo‘qolishi va siljishi hodisalarini bevosita boshqarish imkonini beruvchi bu turdagi optiko-magnit hodisalarni magnit maydoni orqali boshqariladigan magnitofaol ionlar optikasi deb atash mumkin (sof Faradey, Kerr va Koton-Mutton magnitoptik effektlardan farqli o‘laroq).

Nodir yer ferrit-granatlari (NEFG) monokristallarida NY-ionlar optikasini magnit maydon bilan boshqarish bo‘yicha o‘tkazilgan dastlabki tajribalar (nisbatan kuchsiz tashqi magnit maydonlari orqali granat magnitlanishini burishda) ba’zi ferrit-granatlarda infraqizil yutilish spektrlarini keskin o‘zgartirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatib berdi.

Magnit tartiblangan kristalda NY-ioniga ta’sir qiluvchi va alohida olingan NY-ioni bilan tashqi magnit maydon o‘zaro ta’siridan $3\div 4\text{ sm}^{-1}$ tartibda yuqori bo‘lgan effektiv magnit maydoni (yoki almashinish maydoni) Zeeman effektini yuzaga keltiradi, lekin bu holda yutilish chiziqlarining Zeeman komponentalari orasidagi intervallar $2\div 3\text{ sm}^{-1}$ tartibga kattalashgan bo‘ladi.

Nodir yer ferrit-granatlari (NEFG) va nodir yer ortoferritlari (NEF) kristallaridagi NY-ionlar optik xossalarini boshqarishning bunday fizik mexanizmlari optiko-magnit va magnitooptik effektlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu asosan 1,5÷5mkm to'liq uzunligi diapazonidagi infraqizil (IQ) nurlardan amaliyotda qo'llashda katta qiziqish uyg'otadi.

Ushbu holat ulardan amalda qo'llash doirasini sezilarli darajada kamaytiradi va magnit orqali boshqariladigan optik qurilmalarni (modulyatorlar, lazer nurlanishi uchun optik ventillar va boshqa magnito-optik qurilmalar) yaratish imkoniyatlarini chegaralaydi.

Shu sababli, keyinchalik ananaviy qarab chiqiladigan paramagnit kristallarda NY-ionlari kvant holatlarining zeeman ajralishlarining magnitooptik mexanizmlaridan prinsipial farq qiluvchi NY-ionlari optik xususiyatlarini boshqarishning boshqa fizik mexanizmlari qarab chiqildi va o'rganila boshlandi.

Masalan, o'tgan asrning 80-yillarida tashqi magnit maydon bilan NY-ionlarining asosiy va ularga yaqin turgan energetik sathlar to'liq funksiyalarining yutilish (yoki nurlanish) chiziqlarida zeeman tashkil etuvchilari intensivliklarida sezilarli farqlar uyg'otilgan holat to'liq funksiyalari "aralashish"ini hisobiga namoyon bo'lishi inobatga olib kelingan.

Shu sababli, so'nggi yillarda katta qiziqish uyg'otayotgan nodir yer ionlari oksidli birikmalarining optik tadqiqotlari birinchi navbatda ularning amaliy qo'llanilishi imkoniyatlari istiqbollari bilan bog'liq.

Masalan, nodir yer 4f-ionlari oksidlari asosidagi birikmalar ko'rinadigan va ultrabinafsha diapazonlarda ishlaydigan lazerlarda faol muhit sifatida (up-conversion hamda an'anaviy optik damlash (nakachka) sxemalarida ishlaydigan), yuqori samaradorlikka ega lazer matritsalar, maydon emission displeylarning lyuminessent ekranlari, optik aloqa sistemalarida lazer nurlanishi optik ventillari va modulyatorlari uchun istiqbolli materiallar hisoblanadi.

Shu sababli, mazkur ishda NY-ionlarining bunday holatlari tashqi H magnit maydoni bilan "aralashib" ketadigan shtark sathostilarining optik va magnitooptik (magnit xossalari ham) tadqiqotlari NY-granatlari va ortoalyuminatlar kristallaridagi yutilish va lyuminessensiya spektrlaridagi chiziqlar tor chiziqli yoki doiraviy qutblangan tashkil etuvchilarining paydo bo'lishi, yo'qolishi va siljishi bilan namoyon bo'ladigan magnitooptik effektlarning sezilarli kattalikda namoyon bo'lishiga olib keladi. Asosiy e'tibor H magnit maydoni bilan o'zaro ta'siri (optik damlash sharoitida) magnitofaol ionlarning uyg'otilgan magnit sathostilarining to'ldirilish xarakteriga ega bo'lgan qo'shimchalarga olib keladigan Tb^{3+} , Ho^{3+} , Eu^{3+} , Tm^{3+} NY-ionlariga qaratildi. Fizik nuqtai nazardan optik damlash bo'lmagan holda to'ldirilishi tashqi H magnit maydonida ham sof termodinamik muvozanat xarakteriga ega bo'lgan NY-ionlarining qo'zg'atilgan holatlari to'ldirilishining anomal ravishda qayta taqsimlanishida namoyon bo'lishi mumkin. Bir-biriga yaqin (energiya bo'yicha) joylashgan aynigan (yoki "kvaziaynigan") shtark quyi sathlarining bunday tanlangan to'ldirilishida H tashqi magnit maydonda samarali "aralashish"ni (Van-Flek mexanizmi) ta'minlaydigan to'liq funksiyalari simmetriyasi muhim rol o'ynaydi.

Aksariyat hollarda bu holat, mikroto'liqlik diapazon generatorlari va kvant kuchaytirgichlarini yaratishda ahamiyat kasb etuvchi va metastabil xarakterga ega bo'lgan NY-ionlarining uyg'otilgan $4f^{(n)}$ konfiguratsiyali asosiy energetik sathlarining invers to'dirilishlari paydo bo'lishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ushbu dissertatsiya ishida optik, magnit va magnitooptik o'lchash metodlaridan foydalangan holda, granat va ortoalyuminat kristallografik strukturali NY-birikmalarida nokramers NY-ionlari elektron holatlarining shtark va zeeman ajralishi xususiyatlarini batafsil eksperimental o'rganish vazifasi qo'yildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida Davlat budjeti mavzulari doirasida Fizika fakulteti "Optika va lazer fizikasi" kafedrasida hamda O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasining OT-F2-064 raqamli grant loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ortoalyuminat va granatlar (alyuminat va gallaslar) ning paramagnit birikmalardagi NY-ionlari kristall qamrab olishlari uchun xarakterli bo'lgan D_2 va C_5 quyi simmetriyali kristall maydonlarida (KM) shakllanuvchi, ularning energetik spektrlaridagi ajralish shtark ajralishining notrivial xususiyatlari bilan aniqlanuvchi granat va ortoalyuminat kristallaridagi Tb^{3+} , Ho^{3+} , Eu^{3+} , Tm^{3+} nokramers NY-ionlarining magnit, optik va magnitooptik xususiyatlarining o'ziga xos tomonlarini o'rganishga asoslangan eksperimental va nazariy tadqiqotlar o'tkazish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

Djadd-Ofeltning $4f \rightarrow 4f$ o'tishlar intensivligi nazariyasi va nazariy-guruhiy metodlarni qo'llash asosida nokramer Ho^{3+} va Tm^{3+} NY-ionlari bilan to'ldirilgan granat strukturali kristallarda tajribada kuzatiladigan Ho^{3+} va Tm^{3+} kristallarda nokramers NY-ionlarining $4f \rightarrow 4f$ optik o'tishlarni identifikatsiya qilish;

Golmiy-ittriyl granat-gallatda ($HoYGG$) va tuliy-ittriyl granat-alyuminatda ($TmYAG$) $4f^{(n)}$ asosiy shtark sathosti multipletlari energiyalarini aniqlash va bu birikmalardagi past haroratlarda kuzatiladigan magnitooptik (LMSQ, MDD) va optik (yutilish, lyuminessensiya) effektlarning spektral bog'liqliklarini tahlil qilish asosida ular orasida sodir bo'ladigan optik o'tishlar identifikatsiyalarini amalga oshirish;

Past haroratlarda granat strukturasidagi nokramers Tb^{3+} ionlarining magnitooptikasiga "aralashish" effektining qo'shadigan hissasini o'rganish maqsadida terbiy-ittriyl $Tb_{0,2}Y_{2,8}Al_5O_{12}$ granat-alyuminatlarining $4f \rightarrow 4f$ nurlanishli ${}^5D_4 \rightarrow {}^7F_5$ o'tishlarida past haroratlarda ham bo'ylama, ham ko'ndalang geometriyada Zeeman ajralishlari spektrlarini tadqiq qilish;

Terbiyli gallas-granatlarning optik va magnitooptik spektral bog'liqliklarining tahlili asosida gallas-granat strukturalardagi Tb^{3+} NY-ionlarining $4f^{(n)}$ asosiy shtark sathosti multipletlarining va aralash qo'zg'atilgan $4f^{(n-1)} 5d$ konfiguratsiyalarining identifikatsiyasini, hamda ular orasida sodir bo'layotgan optik o'tishlarni tadqiq qilish;

[110] ortorombik kristall tekisligiga orientirlangan $TbAlO_3$ NY-ortoalyuminatining yutilish spektrini $8\div 300K$ harorat intervalida $480\div 2940$ nm to'liq diapazonida yutilish spektrlarini o'rganish va $85\div 300K$ harorat intervalida $TbAlO_3$ dagi Tb^{3+} ionlarining nurlanuvchi $4f\rightarrow 4f$ o'tishlardagi $^5D_4\rightarrow ^7F_J$ ($J = 0, 1, \dots, 6$) lyuminessensiya spektrlarini tadqiq qilish;

$80\div 300K$ harorat intervalida ortorombik kristallning [110] va [001] kristallografik o'qlari bo'ylab $TbAlO_3$ ortoalyuminati χ magnit singdiruvchanligining haroratga bog'liqligini va $85\div 300K$ harorat intervalida hamda $420\div 750$ nm to'liq uzunliklarida rombik kristallning [110] kristallografik yo'nalishi bo'yicha $TbAlO_3$ ortoalyuminati strukturasi dagi Tb^{3+} ionlarining Faradey aylanishlarini haroratga bog'liqligini tadqiq qilish;

Quyi simmetriyali kristall maydonida nokramers Ho^{3+} va Tb^{3+} NY-ionlari optik spektrlarining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish, shuningdek kristall maydon parametrlarini hisoblash sxemalarini tajriba asosida tasdiqlash.

Tadqiqot ob'ekti sifatida $TbAlO_3$ terbiy ortoalyuminati, terbiy-ittriyl $Tb_{0,2}Y_{2,8}Al_5O_{12}$ (TbYAG) granat-alyuminati, $Tm_xY_{3-x}Al_5O_{12}$ tuliy-ittriyl $Tm_xY_{3-x}Al_5O_{12}$ granat-alyuminati, golmiy-ittriyl $Ho_{0,2}Y_{2,8}Ga_5O_{12}$ (HoYGG) granat-gallati, shuningdek $Tb_3Ga_5O_{12}$ (TbGG) terbiy va godolin $Gd_3Ga_5O_{12}$ (GGG) granat-gallatlarning monokristallari olindi.

Tadqiqot predmeti yuqorida ko'rsatib o'tilgan NY-birikmalarining optik, magnit va magnitoptik xususiyatlarini harorat, to'liq uzunliklari va magnit maydonlarining keng diapazonlarida tadqiq qilish hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. NY-kristall granatlari va ortoalyuminatlarining magnitoptik xususiyatlarini tadqiq qilish uchun differensial magnitoptik usullar, LMSQ, MDD va Faradey effekti (FE), shuningdek an'anaviy Zeeman spektroskopiyasidan foydalanildi. Ularning optik xususiyatlarini o'rganish optik yutilish, fluoressensiya va lyuminessensiyani uyg'otish spektrlarini (LUS) tadqiq qilish orqali amalga oshirildi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan NY-birikmalarining magnit xususiyatlari tebranuvchi namunaga ega ("vibromagnitometr" deb ataluvchi) magnetometrda tadqiq qilindi. Ortorombik (D_2) va monoklin (C_2) simmetriyali kristall maydonlarda nokramers NY-ionlari Tb^{3+} , Ho^{3+} , Eu^{3+} , Tm^{3+} larning to'liq funksiyalari va energetik spektrlarini hisoblashlar kristall maydon (KM) nazariyasining zamonaviy hisoblash usullaridan foydalangan holda amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

birinchi marotaba Tb^{3+} , Ho^{3+} , Eu^{3+} , Tm^{3+} nokramers NY-ionlari bilan faollashtirilgan granat va ortoalyuminat kristallarida kuzatiladigan magnitoptik effektlarning spektral va haroratga bog'liqliklarida magnitofaol ionlarning elektron holatlari to'liq funksiyalarida kvantomexanik «aralashish»ni hal qiluvchi rol o'ynashi ko'rsatib berildi. Bu tasdiq quyida sanab o'tilgan dissertatsiya ishidagi original eksperimental natijalariga asoslangan:

olib borilgan simmetriya tahlili va "aralashish" effektini hisobga olish, terbiy-galliyli $TbGaG$ granatdagi Tb^{3+} ioni 7F_6 va 5D_4 shtark sathosti multipletlari orasidagi $4f\rightarrow 4f$ optik o'tishlari bilan terbiy-galliyli granatda $^7F_6\rightarrow ^5D_4$ yutilish polosasida chiziqlarning zeeman ajralilishidagi anomal holatni bog'lab ko'rib

chiqish imkonini berdi. Bu $4f \rightarrow 4f$ optik o'tishlar uchun ajralishning maydon bog'liqligi terbiyli granat-gallatda ham, terbiyli TbAG granat-alyuminatda ham bo'ylama magnit maydonida bo'lgani kabi xuddi shu multipletlarning shtark sathostilari orasidagi yaxshi ma'lum bo'lgan ko'pgina yutilish chiziqlaridagi zeeman ajralishi maydon bog'lanishlaridan farq qiladi;

bir tomondan LMSQ va MDD larning spektrlarini, ikkinchi tomondan yutilish va lyuminessensiya spektrlarini solishtirish orqali TbGG da 7F_6 , 7F_5 va 5D_4 multipletlarining shtark sathosti energiyalari va to'lqin funksiyalarining topilgan simmetriyalari terbiyli gallat-granatdagi Tb^{3+} nodir yer ioni energetik spektrining sonli hisoblash natijalari bilan o'z tasdig'ini topdi;

birinchi marotaba tuliy-ittriyli Tm^{3+} :YAG granat-alyuminatlardagi nurlanishli $4f \rightarrow 4f$ o'tishlar magnitoptikasida nokramers NY-ionlari o'yg'otilgan elektron holatlarining tashqi magnit maydoni bilan "aralashish" mexanizmining yetakchi rol o'ynashi ko'rsatib berildi;

past haroratlarda ${}^5S_2 \rightarrow {}^5I_8$ nurlanishli o'tishlarda kuzatilgan granat-gallatdagi Ho^{3+} nokramers NY-ionlarining magnitoptik faolligi (MOF) ning sezilarli katta qiymatlarining 5S_2 va 5I_8 multipletlar energetik spektrlaridagi o'ziga xos kvazidublet (ya'ni "kvaziaynigan") holatlarining mavjudligi bilan bog'liq ekanligi ko'rsatib berildi;

birinchi marotaba $TbAlO_3$ rombik kristallining [110] va "c"-[001] o'qlari bo'ylab o'lgangan yutilish va lyuminessensiya spektrlari va χ magnit singdiruvchanligining eksperimental kattaliklarini solishtirish orqali C_5 simmetriyalik KM da nokramers Tb^{3+} NY-ionining asosiy 7F_6 va 7F_J ($J = 0, 1, \dots, 6$), 5D_J ($J = 3, 4$) qo'zg'algan multipletlarining shtark sathosti to'lqin funksiyalari analitik tuzildi;

8÷300K harorat intervalida magnitofol $TbAlO_3$ ortorombik kristallining [110] kristallografik o'qi bo'yicha amalga oshirilgan optik tadqiqotlar natijalarini solishtirish orqali $TbAlO_3$ rombik kristallning C_5 simmetriyalik KM da ularning to'lqin funksiyalari simmetriyasi va Tb^{3+} NY-ioni multipletlari asosiy 7F_6 va 7F_J ($J = 0, 1, \dots, 6$) larning quyi sathostilari orasidagi shtark energetik intervallari aniqlandi;

birinchi marotaba 85÷300K harorat intervalida $TbAlO_3$ rombik kristallning [110] kristallografik yo'nalishi bo'yicha o'lgangan V Verde doimiysining haroratga bog'liqligi va χ magnit singdiruvchanligi orasidagi farqlar kuzatildi;

78K haroratda $TbAlO_3$ NY-ortoalyuminatining ${}^7F_6 \rightarrow {}^5D_4$ $4f \rightarrow 4f$ o'tishida aniqlangan yutilish spektrining (chiziqli qutblangan nurda) kuchli anizotropiyasi optik o'tishlarda kombinatsiyalanuvchi Tb^{3+} ioni multipletlarining 7F_6 asosiy va 5D_4 qo'zg'atilgan eng quyi shtark sathostilari to'lqin funksiyalari simmetriyasi xarakteri va C_5 simmetriyalik KM da nokramers Tb^{3+} ioni asosiy holatining kvazidublet xarakteri bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida olingan 7F_6 multiplet spektridagi tashkil etuvchilar va ularning intensivlik taqsimotlari C_5 simmetriyalik KM nazariyasi doirasida amalga oshirilgan sonli hisoblashlar natijalari bilan o'z tasdig'ini topdi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

past haroratlarda paramagnit terbiy-galliyli va terbiy-aluminiyli granatlarda Tb^{3+} ionining ${}^7F_6 \rightarrow {}^5D_4$ yutilish polosalaridagi o'lchashlarning natijalari paramagnit

terbiy-galliy va terbiy-aluminiy granatlarida yutilish chizig'idagi zeeman effektining maydon bog'liqliklari o'lchandi va identifikatsiya qilindi;

terbiy-galliyli granatda 85K va 300K haroratlarda o'lchangan magnitoptik (LMSQ, MDD) va optik (yutilish, lyuminessensiya) spektrlarining spektral bog'liqliklarini tahlil qilish natijalari asosida TbGG da 7F_6 , 7F_5 va 5D_4 multipletlarning shtark sathostilari orasida sodir bo'ladigan optik o'tishlar birinchi marotaba aniqlandi;

golmiy-ittriyli Ho^{3+} :YGaG granat-gallatda past haroratlarda spektrning ko'rinadigan sohasida lyuminessensiya spektrida kuzatiladigan ta'qiqlangan $4f \rightarrow 4f$ o'tishlarni identifikatsiyasi amalga oshirildi va bu $4f \rightarrow 4f$ o'tishlar amalga oshishi uchun javobgar markazlashmagan simmetrik KM parametrlari eksperimental aniqlandi;

granat-gallat strukturasiidagi nokramers Ho^{3+} NY-ionining asosiy $4f^{(10)}$ -konfiguratsiyasi 5S_2 , 5I_8 va 5G_5 multipletlarining shtark sathosti to'lqin funksiyalari simmetriyalari turi va energiyalari kattaliklari eksperimental aniqlandi;

Tm^{3+} :YAG dagi ${}^1D_2 \rightarrow {}^3F_4$ nurlanishlar polosasida 78K va 293K haroratlarda lyuminessensiya va LMSQ spektrlari bo'yicha olingan kattaliklar asosida kuzatiladigan optik o'tishlar identifikatsiyasi natijalari, shuningdek granat-alyuminat strukturasiidagi Tm^{3+} NY-ioni 3F_4 , 1D_2 va 3H_6 multipletlarining shtark sathosti to'lqin funksiyalari simmetriyalari aniqlandi;

terbiy-ittriyli $Tb_{0,2}Y_{2,8}Al_5O_{12}$ granat-alyuminatidagi Tb^{3+} ionlarining ${}^5D_4 \rightarrow {}^7F_4$ nurlanishli o'tishlaridagi Zeeman effekti tadqiqotlari natijalari tashqi magnet maydonining nafaqat optik o'tishlarning rezonans chastotalaridagi Zeeman ajralishlariga, balki qarama-qarshi yorug'likning doiraviy qutblanishidagi optik o'tishlar ehtimolliklari modifikatsiyasi bilan bog'liq nurlanish intensivligiga ham kuchli ta'sir qilishini ko'rsatib berdi;

8÷300K harorat intervalida o'lchangan $TbAlO_3$ ortoalyuminatning yutilish va lyuminessensiya spektrlari va $TbAlO_3$ ortorombik kristallning turli kristallografik o'qlari bo'yicha 80K÷300K temperatura intervalida o'lchangan χ magnet singdiruvchanligining haroratga bog'liqligi eksperimental tadqiqotlarining natijalarini solishtirish Tb^{3+} ortoalyuminat strukturasiidagi Tb^{3+} NY-ionining asosiy 7F_6 va uyg'otilgan 5D_4 multipletlari quyi shtark sathostilari to'lqin funksiyalari ko'rinishi va shtark intervallari kattaligini aniqlash imkonini berishi aniqlandi;

rombik kristallning [110] o'qi bo'ylab o'lchangan va shu o'q bo'yicha aniqlangan χ magnet singdiruvchanligining haroratga bog'liqligi bilan solishtirilgan $TbAlO_3$ NY-ortoalyuminatining V Verdi doimiysi haroratga bog'liqligi aniqlanganda 85K÷300K intervalida $TbAlO_3$ NY-ortoalyuminatining faradey aylanishida Van-Flek "aralashish"i hissasining yo'qligini ko'rsatdi;

C_5 simmetriyali KM da Tb^{3+} nokramer NY-ionlarining 7F_6 asosiy va F_J ($J = 0, 1, \dots, 6$), 5D_J ($J = 3, 4$) qo'zg'atilgan shtark sathosti to'lqin funksiyalari simmetriyasining xarakteri, shuningdek ortorombik $TbAlO_3$ kristallining [001] o'qi bo'yicha χ magnet singdiruvchanligining haroratga bog'liqligi aniqlandi;

$TbAlO_3$ NY-ortoalyuminatidagi yutilishning anizotrop qutblanish spektrlarining (chiziqli qutblangan yorug'lik nurida) mumtoz kvant-geometrik

uslubida tahlil qilish va ular asosida optik o'tishlarda kombinatsiyalanuvchi Tb^{3+} nokramers ionlari multipletlarining 7F_6 asosiy va 5D_4 qo'zg'algan shtark sathosti to'liq funksiyalari simmetriyalari aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida o'z aksini topgan tajriba natijalarini boshqa qayd qilish usullari yordamida olingan ma'lumotlar bilan taqqoslash imkonini, shuningdek eksperimental natijalarni nazariy hisob-kitoblar bilan taqqoslash imkoniyati mavjudligidadir. Optik va magnitoptik tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida spektral bog'lanishlarni qayd qilish va qayta ishlashning zamonaviy metodlaridan foydalangan boshqa tadqiqotchilarning olgan ma'lumotlari bilan solishtirish maqsadida olib borilgan parallel tadqiqotlar bilan olingan natijalar ishonchliligi ta'minlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalarning ilmiy ahamiyati quyi simmetriyali kristall maydonda shakllanuvchi, nokramers NY-ionlarining energetik spektrlari strukturalari haqidagi mavjud tasavvurlarni yetarli darajada chuqurlashtirishga va aniqlashtirishga imkon beradi; bir tomondan Tb^{3+} , Ho^{3+} , Eu^{3+} , Tm^{3+} nokramers NY-ionlarining uyg'otilgan elektron holatlari energetik spektrlarida shtark va zeeman ajralishlari orasidagi aloqani aniq ko'rsatib bersa, ikkinchi tomondan NY-ionlari bilan faollashtirilgan granat va ortoalyuminat strukturali paramagnit kristallarning bu aloqalar bilan bog'liq optik, magnit va magnitoptik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Amaliy nuqtai nazardan olingan quyidagi:

spektrning ko'rinadigan va yaqin ultrabinafsha sohalarida NY-granatlari va NY-ortoalyuminatlar asosida ishlaydigan turli xil magnitoptik qutblovchi qurilmalar (modulyatorlar, optik izolyatorlar, displeylar) yaratish;

tadqiq qilingan NY-birikmalarining ($TbAlO_3$, $Ho^{3+}:YGG$ va $Tm^{3+}:YAG$) ham *up*-konversion, ham optik damlashning an'anaviy sxemalarida ishlovchi ko'rinadigan diapazondagi lazerlarda faol muhit sifatida qo'llash imkoniyatlarni beradi.

Tadqiqotning ayrim natijalarini "Kristallarning magnitoptikasi va spektroskopiyasi", "Elektromagnit nurlanishning moddalar bilan o'zaro ta'siri" maxsus kurslari mashg'ulotlarida, shuningdek fizika bilan tutash mutaxassisliklarda tahsil olayotgan talabalarga lazer fizikasi, magnit hodisalari fizikasi kabi fanlarni o'qitishda qo'llash mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotda qo'llanilganligi.

Dissertatsiya ishini bajarish mobaynida ishlab chiqilgan optik musbat qayta aloqali fotoelastik qutblovchi modulyatorlardan turli *4f*- va *3d*-birikmalarining MDD, LMSQ spektrlarini va faradey aylanishlarini o'lchashda, shuningdek kam mo'dali optik nurtolalarning qutblash xususiyatlarini tadqiq qilishda foydalanildi. Dissertatsiya ishining D_2 va C_s simmetriyali KM larda nokramers NY-ionlarining elektron holatlari to'liq funksiyalarining koordinatali almashtirishlariga tegishli bo'lgan natijalaridan AQSh olimlari bilan hamkorlikda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda foydalanilmoqda. Dissertatsiya ishining ba'zi natijalaridan lazer fizikasi, fizikaviy optika kursidan laboratoriya mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya ishini bajarish mobaynida ishlab chiqilgan optik musbat qayta aloqali fotoelastik qutblovchi modulyator, D_2 va C_S simmetriyali KM larda nokramers NY-ionlarining elektron holatlari to'liq funksiyalarining koordinatali almashtirishlariga tegishli bo'lgan natijalariga ko'ra:

disertatsiya ishida Tb^{3+} , Ho^{3+} , Eu^{3+} , Tm^{3+} gallas va ortoalyuminat granatlaridagi ichki konfiguratsion o'tishlardagi yutilish spektrlari xususiyatlari bo'yicha olingan natijalar xorijiy jurnallarda (Journal of Rare Earths, Volume 33, № 12, 2015, IF: 4.632; Advanced Optical Materials, Volume 9, № 24, 2021, IF: 9.599; Materials Letters, Volume 65, № 12, 2011, IF: 3.423; Journal of Rare Earths, Volume 33, № 12, 2015, IF: 4.632) Tm^{3+} :YAGdagi $^1D_2 \rightarrow ^3F_4$ nurlanishlar polosasida 78K va 293K temperaturalarda lyuminessensiya va LMSQ spektrlari bo'yicha olingan kattaliklar asosida kuzatiladigan optik o'tishlar identifikatsiyasini amalga oshirish, shuningdek granat-alyuminat strukturasiidagi Tm^{3+} NY-ioni 3F_4 , 1D_2 va 3H_6 multipletlarining shtark sathosti to'liq funksiyalari simmetriyalari turi va energiyalari kattaliklarini aniqlash imkoniyatlarini berdi, shuningdek kam mo'dali optik nurtolalarning qutblanish xususiyatlarini tadqiq qilishda foydalanildi;

disertatsiya ishida tarkibida Tb^{3+} nokramers ionlari bo'lgan kristallarning magnitoptik xususiyatlarini tadqiq qilish bo'yicha olingan natijalardan Rossiya fanlar akademiyasining "Kristallografiya va fotonika" Federal ilmiy-tekshirish markazida kristall muhitlarda magnitoptik effektlarni kuzatish va presizion o'lchashlarni amalga oshirishda qo'llaniladigan metodika ishlab chiqildi (RFA FNIS "Kristallografiya va fotonika" ilmiy markazining 2023-yil 22-noyabr sanasidagi № 9311/41-1180 raqamli dalolatnomasi). Natijada tadqiq qilinayotgan gallas va alyuminat granatlarining magnitoptik xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonlarini yaxshilashga erishildi;

Disertatsiya ishida tarkibida Tb^{3+} , Ho^{3+} , Eu^{3+} , Tm^{3+} ionlari mavjud bo'lgan gallas va alyuminatlarning optik va magnitoptik xususiyatlarini tadqiq qilish natijasida olingan natijalardan, masalan magnitosirkulyar anizotropiya, magnit sirkulyar dixroizmlardan Uxan universitetida (Xitoy Xalq Respublikasi) olib borilayotgan NY-birikmalari optik va magnitoptik xususiyatlarining fizik mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda foydalanildi (School of Power and Mechanical Engineering Wuhan University ning 2023 yil 27 noyabrdagi dalolatnomasi). Olingan natijalar tadqiq qilingan materiallar magnitoptik xususiyatlarining fizik mexanizmini yanada to'ldirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 13 ta xalqaro va respublika ilmiy-texnik anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhoqamadan o'tgan.

Ishning asosiy natijalari «Magnetizm va magnit materiallarida yangiliklar» deb nomlangan XXI xalqaro ilmiy konferensiyasida (Moskva, 2009 yil iyun-iyul), magnetizm bo'yicha Moskva xalqaro simpoziumida - «Moscow International Symposium on Magnetism - MISM» (Moskva, avgust 2011), «Magnetic and Superconducting Materials - MSM» (Xiva, sentabr 2007), 9 - O'zbek-Koreys

simpoziumida «Nanoscience: Problems and Prospects Quantum Functional Materials and Devices» (Toshkent, noyabr 2010), “Zamonaviy fizikaning va fizik ta’limning muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy konferensiyasida va “Zamonaviy fizikada optik usullar” Respublika ilmiy konferensiyasida (Toshkent, 2008g.), «Lazer fizikasi, optika va lazer fizikasining amaliy jihatlari (Toshkent, dekabr 2006) » deb nomlangan ilmiy-amaliy seminarlarda taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 24 ta ilmiy nashrlarda e’lon qilingan: jumladan 11ta ilmiy maqola: shulardan 10 tasi chet el ilmiy jurnallarida («Journal of Applied Physics», «Journal of Luminescence», «Journal of Rare-Earth», «Physica Status Solidi (B)», «Optika i Spektroskopiya», «Izvestiya RAN. Ser. Fiz.», «Izvestiya Vuzov. Fizika»), 1 tasi respublika jurnalida, 13 ta tezis va ma’ruzalarda ish natijalari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 7 ta bob, xulosa, 155 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 246 betni tashkil etadi, shu jumladan 50 ta rasm va 10 ta jadvallar.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tekshiruv ob’yekti va predmetlari tavsiflari keltirilgan, O’zbekiston respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprotatsiya natijasi, nashr qilingan maqolalar, dissertatsiyaning tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Paramagnit granatlar va ortoalyuminat kristallaridagi nokramers nodir yer ionlarining magnitooptik, optik va magnit xususiyatlari**» deb nomlangan birinchi bobida paramagnit granatlar va ortoalyuminat kristallardagi nokramers nodir yer ionlarning kristallografik, magnitooptik, optik va magnit xususiyatlari haqidagi batafsil ma’lumotlar va shu paytgacha olib borilgan ishlarning umumiy sharhlari keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Eksperimental qurilmalar va o’lchash texnikasi. Namunalar**» deb nomlangan ikkinchi bobida o’lchash usullari, optik, magnit va magnitooptik tadqiqotlar uchun qo’llanilgan eksperimental qurilmalar qisqacha bayon qilingan.

Eksperimental tadqiqotlar olib borilgan terbiy-ittriyl $Tb_{0,2}Y_{2,8}Al_5O_{12}$ (TbYAG) granat-alyuminati, golmiy-ittriyl $Ho_{0,2}Y_{2,8}Ga_5O_{12}$ (HoYGG) garant-alyuminati, hamda terbiy $Tb_3Ga_5O_{12}$ (TbGG) va godolin $Gd_3Ga_5O_{12}$ (GGG) granat-alyuminati monokristallari «eritmada eritma» ga o’z-o’zidan kristallanish usulida o’stirilgan.

Dissertatsiyaning «**Paramagnit granat kristallardagi nokramers nodir yer ionlarining (Ho^{3+} , Eu^{3+} , Tm^{3+}) magnitooptik va optik spektrlari**» deb nomlangan uchinchi bobida paramagnit granat kristallardagi nokramers nodir yer


ionlari (Ho^{3+} , Eu^{3+} , Tm^{3+}) ustida olib borilgan magnitoptik va tadqiqot natijalari keltirilgan. **1-rasmda** $\text{Ho}^{3+}:\text{YGG}$ ($\text{Ho}_{0,2}\text{Y}_{2,8}\text{Ga}_5\text{O}_{12}$) granat gallasining $^5\text{I}_8 \rightarrow ^5\text{S}_2$, $^5\text{F}_4$ va $^5\text{I}_8 \rightarrow ^5\text{F}_5$ multipletlarida o'lgangan yutilish spektrlari keltirilgan. **1-rasmdan** aniq ko'rinib turibdiki harorat 85K gacha pasayganda $^5\text{I}_8 \rightarrow ^5\text{S}_2$, $^5\text{F}_4$ yutilish chiziqlaridagi torayadi va ularning amplitudalari bir necha marotaba ortadi. Haroratning 8K gacha pasayishi ba'zi chiziqlarning bir nechta spektrning tashkil etuvchilariga ajralishiga va ular maksimumlarining bir vaqtning o'zida siljishiga olib keladi. Ushbu yutilish diapazonidagi chiziqlarning aksariyati singlet hisoblanadi va Ho^{3+} NY-ionining $^5\text{I}_8$ multipletlarining asosiy holatidan kelib chiqadi va olingan natijalar sonli hisoblashlar natijalari bilan tasdiqlanadi.

$\text{Ho}^{3+}:\text{YGG}$ da $4f \rightarrow 4f$ nurlanishli $^5\text{F}_4 \rightarrow ^5\text{I}_7$, $^5\text{I}_4 \rightarrow ^5\text{I}_8$ va $^5\text{S}_2 \rightarrow ^5\text{I}_8$ o'tishlarda lyuminessensiya spektrlari (**2-rasm**) Ho^{3+} NY-ionining asosiy $4f^{10}$ konfiguratsiyasi $^3\text{H}_4$, $^5\text{G}_4$, $^5\text{G}_5$ va $^5\text{G}_6$ yuqori energiyali multipletlarining foto uyg'onishlari tufayli yuzaga keladi.



1-rasm. $\text{Ho}^{3+}:\text{YGG}$ granat-gallasining 8K (nuqtalar), 85K (uzluksiz chiziq) va 293K (punktir chiziq) haroratlarda o'lgangan yutilish spektrlari. 8K da yutilishning maksimal kattaligi $\sim 27\text{sm}^{-1}$ ni tashkil qiladi. Qo'shimcha ilovada: gallas-granatdagi Ho^{3+} ionining $^5\text{S}_2$, $^5\text{F}_4$ va $^5\text{I}_8$ multipletlaridagi sathostilari orasidagi o'tishlarning optik sxemasi keltirilgan.

Lyuminessensiyaning "yashil" polisasi uchun namuna harorati 293K dan 80K gacha kamayishi 546 dan 555nm gacha ($^5\text{S}_2 + ^5\text{F}_4$) asosiy uyg'otilgan multipletidagi o'tishlar) spektr diapazonida yotuvchi nurlanish chiziqlarining "muzlatilishi" bilan va -1 -7 va -8 -15 ($^5\text{S}_2$ multipleti shtark sathostilari o'tishlari bilan) lyuminessensiya chiziqlari intensivligining bir vaqtning o'zida bu chiziqlarning torayishi amalga oshuvchi o'sishi bilan boradi.




2-rasm. 80K (uzluksiz chiziq) va 293K (uziq chiziq) haroratlarda Ho³⁺:YGG dagi lyuminessensiyaning «yashil»polosasi spektri-(a); 293K haroratda o‘lchangan lyuminessensiya infraqizil polosalari spektri (b). Qo‘shimcha ilovada: $^5F_4 \rightarrow ^5I_7$, $^5I_4 \rightarrow ^5I_8$ va $^5S_2 \rightarrow ^5I_8$ nurlanishli optik o‘tishlar sxemasi.

MDD va optik yutilish spektrlarini taqqoslashdan yaxshi ko‘rinib turibdiki, «paramagnit» C'-hadining hissasi biz tajribada kuzatadigan MDD ning spektral bog‘lanishining 6 yutilish chizig‘ida, shuningdek MDD ning -1, -2 va -3 yutilish chiziqlari yaqinida namoyon bo‘ladigan uncha katta bo‘lmagan assimetriyasida kuzatilar ekan.


4-rasmda 300K haroratda H=9,0 kE tashqi magnit maydonida GGG dagi Eu³⁺ ionlarining $^5D_1 \rightarrow ^7F_1$ lyuminessensiya chizig‘ida o‘lchangan LMSQ spektri darajalari keltirilgan. -4 nurlanish chizig‘i spektral bog‘lanishi P(v)

Iyuminessensiya chizig'i doirasi markazida effekt ishorasi o'zgaradigan (LMSQ darajasi A-hadi) chiziqli bog'lanish qiyaligidir, ayni chog'da LMSQ ning ikkilamchi nurlanishlarining boshqa qolgan uch chizig'ida ko'rinmaydi.



3-rasm. 80K haroratda $\text{Ho}^{3+}:\text{YGG}$ da yozilgan MDD (uzluksiz chiziq) va optik yutilish (uziq chiziq) spektrlari. MDD (uzluksiz chiziq) spektridagi ${}^5\text{I}_8 \rightarrow {}^5\text{G}_5$ yutilish polosasining xarakterli xususiyatlari vertikal strelkalar orqali nomerlangan.

Qo'shimcha ilovada: ${}^5\text{I}_8$ va ${}^5\text{G}_5$ multipletlarining shtark sathostilari orasidagi magnitoptik faol o'tishlar sxemasi keltirilgan.




4-rasm. GGG da Eu^{3+} ionlarining ${}^5\text{D}_1 \rightarrow {}^7\text{F}_1$ fluoressensiya polosasida 300K haroratda yozilgan iyuminessensiya (uziq chiziq) va MDD darajalari spektri. 9,0 kE tashqi magnit maydondagi LMSQ darajalari spektri.

LMSQ darajasi hadi A «kvazidublet \rightarrow yakkalangan singlet» magnitoptik faol o'tishida ${}^5\text{D}_1$ multiplet kvazidublet holatining zeeman ajralishi bilan aniqlanadi. Bundan tashqari, ${}^5\text{D}_1$ multipletda kvazidublet sathostilarining simmetriyasini bunday tanlash xuddi LMSQ da shu kvazidublet sathostilaridagi o'tishlar bilan bog'liq boshqa uch -1, -2 va -3 fluoressent chiziqlarida ko'rinmasligi bilan tushuntiriladi, chunki bu holda kombinatsiyalanuvchi holatlarning simmetriyasi LMSQ darajalari hadi A uchun tanlash qoidalarini kanoatlantirmaydi.

MOF ning -A va -C hadlaridagi magnit va elektr maydonlari dipol momentlarining tashkil etuvchilari operatorlari matrik elementlari uchun tanlash qoidalaridan foydalanish (simmetriya bo'yicha) optik o'tishlarda kombinatsiyalovchi holatlar simmetriyasini bevosita aniqlash imkonini beradi.

Tajribalarda kuzatiladigan -1, -2, ... -9 nurlanish chiziqlarining energiyalarini D_2 simmetriyali kristall maydonda (KM) Tm^{3+} NE-ionlari $4f^{12}$ konfiguratsiyasi asosiy energetik sathlarining nazariy sxemalari bilan solishtirish ${}^1\text{D}_2 \rightarrow {}^3\text{F}_4$ iyuminessensiya polosasida -6 va -9 nurlanish chiziqlarida nurlanishli $4f \rightarrow 4f$ o'tishlar simmetrik identifikatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradi (**4-rasm**).




5-rasm. 293K va $H=9.5$ kE tashqi magnit maydonda Tm^{3+} :YAG ning Tm^{3+} ionlaridagi ${}^1D_2 \rightarrow {}^3F_4$ nurlanish polosasida yozilgan LMSQ spektri. Aniqroq ko‘rinishi uchun xuddi shu yerda 78K haroratda (punktir chiziq) ushbu granatning lyuminessensiya spektri fragmenti keltirilgan. Rasmning (b) qismida 78K (uzluksiz chiziq) va 293K (nuqtalar) haroratlarda yozilgan mos nurlanish polosasining spektrlari keltirilgan.

${}^1D_2 \rightarrow {}^3F_4$ lyuminessensiya polosasida -6 va -9 nurlanish chiziqlarida LMSQ darajalari spektral bog‘lanishlari LMSQning «diamagnit» -A hadi uchun odatiy bo‘lgan simmetrik shaklni beradi (chiziq markazidagi ishorasi almashinuvchi effekt).

-4 va -8 nurlanish chiziqlaridagi magnit qutblangan lyuminessensiyaning o‘ziga xos xususiyatlari paramagnit had (C-had) bilan bog‘liq va asosan 1D_2 multipletda shtark singletlarining yaqin joylashgan holatlari bilan ushbu kvazidublet holatning Van-Flek «aralashishi» mexanizmi orqali shakllanadi.

Dissertatsiyaning «**Terbiy-ittriyli TbYAG aluminiy granatida nodir yer ionlarining Zeeman effekti va elektron holatlarining shtark ajralishi xususiyatlari**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida terbiy-ittriyli TbYAG aluminiy granati lyuminessensiya spektrlarida Zeeman effekti tadqiqotlari natijalari keltirilgan.




6-rasm. 85K haroratda [001] kristallografik o‘qiga parallel yo‘nalgan $H=7$ kE tashqi magnit maydonda σ va σ^+ spektrlarning -1 va -6 nurlanish chiziqlari. O‘ng tomonda bo‘ylama Zeeman effekti tajriba geometriyasida amalga oshiriladigan magnitoptik faol o‘tishlar sxemasi. Qavslarda sm^{-1} larda berilgan 5D_4 va 7F_5 multipletlar shtark sathostilari energiyalari keltirilgan.


TbYAG ($Tb_{0,2}Y_{2,8}Al_5O_{12}$) granatdagi Tb^{3+} ionlaridagi $4f \rightarrow 4f$ nurlanishdagi $^5D_4 \rightarrow ^7F_5$ o'tishlar orqali aniqlanadigan lyuminessensiyaning «yashil» polosasida Zeeman effektining spektral bog'lanishlarini o'lchash 85K haroratda 7kE tashqi magnit maydonida amalga oshirildi.

5-rasmda [001] kristallografik yo'nalish bo'ylab yo'nalgan tashqi maydonida o'ng σ_+ va chap σ_- sirkulyar qutblanishlarda yozilgan -1 va -6 nurlanish chiziqlaridagi Zeeman effektining spektral bog'lanishlari keltirilgan. Nurlanishlarning -1 va -6 chiziqlari tashqi maydonda uncha katta bo'lmagan zeeman ajralishiga uchrashi bo'ladi, shuningdek teskari sirkulyar qutblanishlarda intensivliklari nisbatan o'zgaradi. Ortogonal sirkulyar σ_+ va σ_- qutblanishlarda (7kE tashqi magnit maydonining o'zgarish yo'nalishlarida) dublet tashkil etuvchilari energetik farqlarining keskin farq qilishi tufayli -1 chiziq ularning aqalli birortasida ham ajratilib aniqlanmaydi. Ortogonal sirkulyar qutblanishlarda H tashqi magnit maydoni orqali indutsirlangan lyuminessensiya chiziqlaridagi intensivlik o'zgarishlari NY-ionlaridagi faol magnitoptik o'tishlar sodir bo'ladigan yaqin joylashgan shtark singletlari to'lqin funksiyalarining «aralashish»i bilan yuzaga keladi.


Dissertatsiyaning «Terbiy-galliyli TbGG granatning magnitoptik spektrlarining o'ziga xos xususiyatlari» deb nomlangan beshinchi bobida 80K va 300K haroratlarda spektrning ko'rinadigan sohalarida paramagnit TbGG granatning $4f \rightarrow 4f$ o'tishlarida MDD, LMSQ va optik yutilish spektrlari keltirilgan.



